

**ABDULLA ORIPOVNING SHE'RIYATIDAGI METAFORALARINING
O'ZIGA XOSLIGI.**

ASLIDDINOVA DILOROM RAMIDDIN QIZI

(Turon universiteti magistranti)

e-mail: asliddinovadilorom668@gmail.com

UDC:808.03(045)

ORCID:0009-0006-0973-6147

Turon universiteti o'qituvchisi

*Phd, Dcs, **Suyarova Nargiza***

email: suyarovanargiza578@gmail.com

ORCID:0009-

0000-5564-71

Kirish

Respublikamizning Birinchi Prezidenti I.A.Karimov “Yuksak ma’naviyat – yengilmas kuch” asarida: “O‘zlikni anglash, milliy ong va tafakkurning ifodasi, avlodlar o‘rtasidagi ruhiy-ma’naviy bog‘liqlik til orqali namoyon bo‘ladi. Jamiki ezgu fazilatlar inson qalbiga, avvalo, ona allasi, ona tilining betakror jozibasi bilan singadi”, – degan edilar.

Darhaqiqat, til “jamiyat ko‘zgusi” ekanligi bilan bir qatorda, har bir millatning iftixori hamdir¹

Metafora- o'xshatish vositalaridan biri bo'lib, bir narsani boshqa bir narsaga qiyoslash yo'li bilan hosil bo'ladi. Metafora badiiy adabiyotda keng ko'lamda foydalanishidan tashqari u inson tafakkurining asosiy mexanizmi hisoblanadi. U nafaqat nutqni chiroyli qiladi, balki insonlarga ma'lum bir konkret tushunchani ham yaratib keladi.. O'zbek adabiyotida metaforalardan eng ko'p foydalangan o'zbek shoiri Abdulla Oripov hioblanadi. Keling, hozir uning she'riyatidagi yorqin metaforik birliklarni tahlil qilib chiqamiz. Dastlab, Abdulla Oripovning

¹ Ixtiyor Ermatov Monografiya “O‘zbek tilshunoslik terminologiyasi” -B.3.

<https://scientific-jl.com/>

Ka'batulloh haqidagi she'riga yuzlanamiz.

Ka'batulloh

Hanuz biri ikki bo'lmagan eldan

Keldim, madad bergil, yo Ka'batulloh.

Bag'ri xun, tolei kulmagan eldan

Keldim, madad bergil, yo Ka'batulloh.

Bir zamon uning ham bo'lgan qudrati,

Dunyoni yoritgan zehni, fikrati.

Hatto qirg'oqlarni buzgan shiddati,

Keldim, madad bergil, yo Ka'batulloh.

Tegirmon toshidek aylandi taqdir,

Karvonlar to'zg'idi, sarbonlar so'qir.

Bandi bo'lgan edi ulug' yurt, axir,

Keldim, madad bergil, yo Ka'batulloh.

Avj oldi ig'vo-yu firib, razolat,

Yig'ladi bir chetda yetim adolat.

Bormi saodatga, axir, kafolat,

Keldim, madad bergil, yo Ka'batulloh.

Xor bo'ldi Vatanda kimki ilmi bor,

Birovlar zar bilan topdi e'tibor.

Hiylagar ko'paydi, ko'paydi makkor,

Keldim, madad bergil, yo Ka'batulloh.

Duch kelgan sanamga sig'indik gohi,

Bizga keng ochildi Shayton dargohi.

Axir, nima edi elning gunohi,

Keldim, madad bergil, yo Ka'batulloh.

Magar bo'ri ekan odamga odam,

Bir-birin boshini yegay damodam

Haqiqat yo'q joyda yashnagay yolg'on,

Keldim, madad bergil, yo Ka'batulloh.

Qay zamon odamlar bad fe'lin sezdim
Vafoli do'st izlab dunyoni kezdim.
Topmadim, topmadim, baridan bezdim
Keldim, madad bergil, yo Ka'batulloh.
Qoshingda tiz cho'kib turibman shu dam
Dilimda iltijo, qo'limda qalam.
Shafqating ayama mendan ham, Egam,
Keldim, madad bergil, yo Ka'batulloh.
Shukrona ayturman o'zingga, yo Rabb,
Yuz burdik hidoyat yo'liga qarab.
Haq degan yurtimning baxtini so'rab
Keldim, madad bergil, yo Ka'batulloh.

Uchinchi misrada, ya'ni "Bag'ri xun, tolei kulmagan eldan" jumlasida antropomorfik metafora qo'llangan. Ya'ni insonga xos biriklar elga ko'chgan. Bag'ir insonning bir a'zosi sanalib, uning xun, ya'ni qon bo'lishi insonga xos hisoblanadi. Tolening ham kulishi odamga xos jarayon bo'lib, u qiyoslash orqali elga, ya'ni vatan obraziga ko'chib, go'zal metafora hosil qilingan. Oltinchi misrada ham, ya'ni "Dunyoni yoritgan zehni, fikrati" jumlasida ham metafora qo'llangan. Dunyoni yoritish quyoshga xos jarayon bo'lib, bu fe'l el, ya'ni vatanga ko'chgan. Keyingi "Yig'ladi bir chetda yetim adolat" jumlasida yetim odamga xos xususiyat bo'lib, odalatga o'xshatish orqali shoir yangi ma'no yaratgan. Quyidagi misralarda ham metaforaning yorqin ifodasi qo'llangan.

"Magar bo'ri ekan odamga odam,
Bir-birin boshini yegay damodam
Haqiqat yo'q joyda yashnagay yolg'on",

Shoir Abdulla Oripov odam obrazini to'g'ridan to'g'ri bo'riga qiyoslab, zoomorfik metaforani hosil qilgan. Bir-birin boshini yeyishi ham bo'riga xos xislat bo'lib, u ham odamga ko'chgan. Oxirgi "Haqiqat yo'q joyda yashnagay yolg'on" jumlasida yashnamoq fe'li odamga xos bo'lib shoir yolg'onning yashnashi deb antropomorfik metafora hosil qilgan.

Xulosa qiladigan bo'lsak, yuqoridagi she'rda bir qancha metaforik birliklar ishlatilgan va u misralar she'rni yana ham chiroyliroq qilgan. Shunday ekan, biz metaforalarsiz badiy adabiyotimizni tasavvur ham qila olmaymiz. Sababi, metaforalar nutqni yana ham go'zal qilishga yordam beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

Ixtiyor Ermatov Monografiya "O'zbek tilshunoslik terminologiyasi"

Manba <https://tafakkur.net/kabatulloh/abdulla-oripov.uz>